

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Abbosova	
Mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etishda milliy g'oyaning ro'li	98
Б.А.Абилова	
Суфийские ордена и их роль в историко-политических процессах средневековья	102
X.Q.Abdumutalov	
Yangi O'zbekistonda komil insonni shakllantrishda milliy g'oyaning o'rni.....	107
M.M.Gulamova Xoja	
Muhammad Porsoning irfoniy qarashlarida insonning ma'naviy kamoloti va ontologik mohiyati ..	110
R.Sh.Alisher	
Mirbobo Naqshbandiyning inson kamoloti qalbni sayqallash, unga ma'naviy ozuqa berish haqidagi mulohazalari	115
S.S.Hamroyev, D.Sh.Shuxratova	
Yangi O'zbekistonda oila institutini isloh qilishning ijtimoiy-huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi	119
F.S.Qosimov	
Falsafa nigohida inson kapitalining shakllanishi va taraqqiyotdagi roli.....	124
B.M.Madaminov	
Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariy-metodologik asoslari	129
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbikorlik faoliyatining rivojlanishida halollik va axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy roli	133
M.O.Oripova	
Jamiyatda inson begonalashuvi fenomenining mohiyati va falsafiy mazmuni	137
Д.Р.Вахабова	
Возникновение философских взглядов в персидско-таджикской литературе (Абу Абдулла Рудаки)	142
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyat: tushuncha va falsafiy tahlili.....	147

SIYOSAT

A.A.Ahrorqulov, A.To'xtasinov	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish omillari	152
G.O.Sa'diyeva	
Markaziy Osiyodagi zamonaviy geosiyosiy tendensiyalar	156
R.A.To'ychiyeva	
Yangi davrda Hindiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos ustuvor va farqli jihatlar	163
D.Mamadjonova	
Prokuratura tizimida inson huquqlarini himoya qilish: qonunchilik asoslari va amaliyot	172
X.Qodirov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni.....	176
P.I.Ovulov	
Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi	180

TARIX

B.B.Iminov	
O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalarining vujudga kelish tarixi	185
A.U.Hamroyev	
Amir Haydar – ijtimoiy adolat tarafdori bo'lgan hukmdor.....	190
A.U.Hamroyev	
Gulshanul muluk asarida mang'itlar boshqaruvi davrida jamiyat iqtisodiy hayotining yoritilishi	194
M.M.Azimova	
Farg'ona vodiysida qishloq-vrachlik punktlari faoliyatidagi o'zgarishlar tahlili.....	198



UO'K: 101.1

YOSHLARNI AXLOQIY TARBİYALASHDA O'ZBEK XALQI MILLIY QAHRAMONLIK TUYG'USINI MUSTAHKAMLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗРАБОТКИ КОНЦЕПЦИИ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ****THE SOCIAL NECESSITY OF DEVELOPING THE CONCEPT OF MORAL EDUCATION****Madaminov Baxromjon Mansurjonovich** 

Farg'ona davlat universiteti sirtqi bo'lim dekan o'rinbosari

Annotatsiya

Maqolada yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariy-metodologik asoslari, yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning tarixiy-falsafiy jihatlari, yoshlarni axloqiy tarbiyalashda milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning istiqboldagi ustuvor vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariy-metodologik jihatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассмотрены теоретико-методологические основы усиления чувства национального героизма узбекского народа в нравственном воспитании молодежи, историко-философские аспекты усиления чувства национального героизма узбекского народа в нравственном воспитании молодежи. народа, изучаются приоритетные задачи укрепления чувства национального героизма в нравственном воспитании молодежи в будущем. Также анализируется понятие нравственного воспитания и его содержание.

Abstract

In the article, the theoretical and methodological foundations of strengthening the sense of national heroism of the Uzbek people in the moral education of young people, the historical and philosophical aspects of strengthening the sense of national heroism of the Uzbek people in the moral education of young people, the priority tasks of strengthening the sense of national heroism in the moral education of young people in the future studied. Also, the concept of moral education and its content are analyzed.

Kalit so'zlar: axloqiy tarbiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy qonuniyatlar, an'anaviylik va zamonaviylik, qiyosiy tahlil, milliy qahramonlik, falsafiy mexanizm, vatanparvarlik.

Ключевые слова: нравственное воспитание, национальные и общечеловеческие ценности, социальные законы, традиционализм и современность, сравнительный анализ, национальный героизм, философский механизм, патриотизм.

Key words: moral education, national and universal values, social laws, traditionalism and modernity, comparative analysis, national heroism, philosophical mechanism, patriotism.

KIRISH

Axloqiy qadriyatlarga rioya qilishni har bir shaxs o'zidan boshlashi kerak. Eng asosiy narsa axloqiy qadriyatlarni bilish emas, balki ularga amal qilishdir. SHaxsning faoliyatiga nisbatan axloqiy bahoni jamoatchilik beradi. Zero, axloqlilik – shaxs faoliyatining jamoatchilik belgilagan ma'naviy mezonlariga mos kelishidir. Barcha axloqiy xatti – harakatlar tahliliga ma'naviy asos bo'lgan imon, vijdon esa inson hayotining ichki ruhiy qonunidir. Axloq muammolari tahlilida inson ko'proq shu ichki qonunga tayanib ish ko'radi. Axloq va axloqlik o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Axloqlik keng qamrovli, o'zida bir qator ijtimoiy–ma'naviy hodisalarni mujassam etgan jarayondir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tarixiy va axloqiy qadriyatlarning yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ta'siri muammolari R.Mixner, S.Kautz, J.Sitser, Fernand Grenand, Frederik Starr, Eyji Mano, Magida Mahluf, Mark Bonnel, Yul Yanssens, Masataka Takeshita, P.Petrov, S.I.Tyulyaev, S.P.Tolstov, K.Pirliiev, R.R.Safin, I.F.Xarlamov, B.To'ychiev, I.Inoyatov, M.Abilov, V.Kaloshin, O.Abdurasulov, A.Sa'diev, E.Safaeva, N.Remeev, Ya.G'affarov, T.Toshpo'latov, S.Mahkamov R.A.Mulladjonova, O.Musurmonova,

N.Ortiqov, B.Xodjaev, Q.SHonazarov, H.Boltaboev, G.Zaripova, N.Komilov, U.Mansur, U.Mahkamov, S.Nishonova, N.Ortiqov, O.Musurmonova, K.Qilichevalar tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Axloqiy tarbiya to'g'risida so'z borganda uning ijtimoiy va individual darajalarini farqlash lozim. Jamiyatning axloqiy madaniyati uning olam bilan o'zaro aloqadorligi, ijtimoiy munosabatlarning butun tizimini takomillashtirish natijasida yaratilgan axloqiy qadriyatlar jamuljamidir. SHaxsning axloqiy madaniyati esa uning go'zallik va ezgulik qonunlari asosida tabiat, ijtimoiy hayot hamda o'zining mohiyatli kuchlarini har tomonlama ifoda etadigan his-tuyg'u, idrok va qayta yaratuvchanlik qobiliyatlari majmuidir.

Axloqiy tarbiya murakkab ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat miqyosida tabiatni axloqiy o'zlashtirish jarayonlari va natijalari, mehnat faoliyati, turmush, ijtimoiy munosabatlarning axloqiy jihatlari; jamiyat a'zolarining axloqiy qarashlari, va manfaatlarining muayyan holati; axloqiy tarbiya nazariyasi va amaliyoti, kishilar axloqiy faolligining rang-barang namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Axloqiy madaniyat axloqiy ong va uning zaminida turuvchi amaliyotning o'ziga xos ifodasi sifatida kishilarning real axloqiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Axloqiy tarbiya siyosiy, huquqiy, ekologik kabi madaniyat ko'rinishlari bilan o'zaro aloqadordir. Siyosiy madaniyat muayyan jamiyat, guruh, kishilarning siyosiy ongi, manfaatlari, e'tiqodlari, maqsadlarini ifodalaydigan siyosiy g'oyalar majmui bo'lib amaliy faoliyatning muhim sohalaridandir. Axloqiy va siyosiy madaniyatning o'zaro aloqadorligi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qadim yunon mutafakkirlari Aflotun, Arastu shuningdek sharqda Forobiy, Beruniy asarlarida, Temur tuzuklarida davlatni boshqarishda axloqning o'rniga alohida e'tibor qaratilganiga guvoh bo'lish mumkin. Aflotunning "Davlat", "Qonunlar", Arastuning "Nikomaxning axloq kitobi", "Evdemning axloq kitobi", "Siyosat", Forobiyning "Fozil odamlar shahri", mashhur SHarq pandnomalari "Qobusnoma", "Qutadg'u bilig"larda "Anushirvon pandlarini yod etmoq zikrida", "Dushmandin andisha qilmak zikrida", "Podshohga xizmat qilmoq zikrida", "Podshohga nadimlik qilmoq zikrida", "Vazirlikning shart va rasmlari zikrida", "Podshohlik sharti va rasmi zikrida" kabi boblarda ilgari surilgan axloqiy hikmatlar bevosita siyosat va axloqning mustahkam aloqasini, bir-birini to'ldirishi va bir-biriga tayanishini ko'rsatadi. Ayniqsa, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida shahar boshlig'ining shaxsi, fozil shahar raisining xislatlari, hamda adolatning boshqaruvdagi o'rnini haqida, Amir Temurning "Temur tuzuklari" da "Vazir tutish tuzugi", "Amirlik va hukmdorlik tuzugi", "Vazirlarning xizmat qilish tuzugi", "Navkarning begiga, bekning navkariga muomala qilish tuzugi", "Do'stu-dushmanga muomala qilish tuzugi", "Saltanatni idora qilish tuzugi", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muxsiniy" asarida "Kengash qilish bayonida", "Siyosat bayonida", "Mulozimlar tarbiyati va odobi bayonida" kabi asarlarda jamiyat tomonidan qabul qilingan, o'rnatilgan axloqiy normalarning siyosatda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlab o'tilgan. SHundan ham ma'lumki, siyosiy madaniyat tarkibdagi mafkura, siyosiy tarbiya va an'analar, siyosiy tashkilotlar, siyosiy faoliyat usullari axloqiy madaniyat bilan bog'liq.

SHuningdek, axloqiy va huquqiy madaniyat ham qadimdan aloqador. Bunga olmon faylasufi I.Kant tomonidan ta'kidlangan "qonunning axloqiyligi" haqidagi fikr ham misol bo'la oladi. Bu axloqiy va huquqiy me'yorlar yaqinligi, axloqiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita- axloqiy tamoyillar, me'yorlar, jamoatchilik fikri, el-yurt o'rtasidagi obro'-martaba, an'ana, urf-odat, o'git, pand-nasihat bo'lsa, huquqiy madaniyatda tartibga solish, boshqarish esa bevosita moslovchi-norma, talab qiluvchi-norma, ta'qiqlovchi-norma, chegaralovchi-norma, namunali-norma va hokazolar yuqoridagi axloqiy me'yorlar bilan bir-biriga bog'liqligi va ularga tayanishi orqali amalga oshiriladi.

Adolat, sadoqat, burch, kabi axloqiy tushunchalar huquqiy madaniyatda ham muhim ahamiyat kasb etib, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi va jamiyat axloqiy va estetik taraqqiyotining muhim shartlaridan biriga aylanadi. Qonunga itoat etish huquqiy madaniyatning asosidir, ya'ni huquqiy madaniyatli shaxs qonunlarni nafaqat biladi, balki kundalik ish faoliyatida, hattoki, oilaviy munosabatlarda ularga amal qiladi. Jamiyatimiz aholining huquqiy madaniyatini oshirish masalasini ustuvor qo'yib, bunda qonunga ko'r-ko'rona itoatkor bo'lishni emas, balki fuqarolarning qonunlarga bitilgan normalarini ongli ravishda bajarilishidan manfaatdordir.

Axloqiy va huquqiy madaniyatning o'zaro aloqadorligi, ularning ichki birligi va o'zaro ta'sirchanligi yana shu bilan ham izohlanadiki, ular axloqiy va huquqiy usqurtmaning bir qismi, elementi hisoblanadi va yagona maqsad va vazifalarga ega, o'z printsiplari va mazmuni bilan bir-biriga muvofiq va bir birini to'ldiradi. Huquq axloqning ta'sirchanligini kuchaytirgani kabi axloq huquqning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Amalda hamma huquqiy normalar axloqiy

FALSAFA

asosga ega. Qonunlarga rioya etish fuqarolarning nafaqat yuridik balki ma'naviy majburiyat hisoblanadi. Huquqiy normalarni mukammallashtirishda axloq katta rol o'ynaydi, huquq normalari esa uni odamlar ongiga singdirishga yordam beradi. Huquqiy madaniyatning axloqiy madaniyat bilan bog'liqligi to'g'rilik va haqqoniylik, insoniylik va ishonch, vijdon va javobgarlik kabi tushunchalarda aks etadi. Konstitutsiyaviy normalarda ham axloqiy tamoyillarning huquqiy va axloqiy majburiyatlar birligi bilan mustahkamlab qo'yilgan.

Huquq va axloqning uzviy aloqadorligini huquqshunos olim Z. Islomov tahlil qilarkan huquq bilan axloq o'rtasidagi nisbatlar yetarli darajada murakkabligi, bu birlik, tafovut, hamkorlik va qarama-qarshiliklardan iborat to'rt tarkibiy qismni o'z ichiga olishini ko'rsatib o'tadi. Yuridik adabiyotlarda «huquqiy madaniyat» degan kategoriya ishlatiladi. Bu kategoriya yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan yechimlarni topishga yordam beradi, chunki bu kategoriya axloqiy-huquqiy ta'sirni kompleks holda tushunishga olib keladi. Huquqshunoslik ilmiga doir adabiyotlarda ko'rsatilishicha huquq va axloqning nufuzi insonlarning davlatda qilinayotgan ishlarga ichki munosabatidir. Darhaqiqat, huquqning mavjudligi qonunlarning moddalar va qismlarida emas, balki butun jamiyat a'zolarining ongida qay darajada aks etishi bilan belgilanadi.

Axloqiy madaniyat ekologik madaniyat bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ekologik madaniyat insonning tabiatga faqat tor manfaatparastlik nuqtai nazardan yondoshmasdan, tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish muammolarini hal etishda axloqiy va estetik madaniyatga tayanadi. Zero, ekologiya iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, davlatlarning ichki va tashqi siyosatiga ham kirib borar ekan, ekologik muammolarning jiddiylashib borayotganligi "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarida axloqiy-estetik mezonlarni kuchaytirishni taqozo etmoqda. Olmon faylasufi Immanuel Kant tabiatni axloqiylik bilan bog'lab: "Kimniki bevosita tabiat go'zalligi qiziqтира, bu uning fikrlash tarzida, yo'q deganda, axloqiylikka, ezgulikka qobiliyat mavjudligidan dalolat beradi", deganda ham shuni nazarda tutadi.

Ma'lumki inson tabiatiga ko'ra yaratuvchan, bunyodkor, faoliyatga chanqoqdir. Ana shu fazilatlarni to'g'ri yo'lga solish, tarbiyalash vazifasi jamiyat zimmasiga tushadi. Bu ayni paytda axloqiy tarbiyaning zaruriyatini keltirib chiqaradi. Chunki axloq insonning jamiyat hayotidagi o'rnini, insoniy munosabatlar mezonini belgilaydi. Ijtimoiy-ma'naviy islohotlar xalq, ayniqsa, insonning axloqiy tasavvur va tushunchalariga ta'sir etish bilan barobar ularning yangicha axloqiy madaniyati shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi. Umuman olganda, axloqiy tarbiyaning negizida shaxsning ma'naviyat va ma'rifat bilan nechog'lik yaqinligi va ularni o'z ongi va shuurining mulkiga aylantirganligi yotadi.

Insonning axloqiy madaniyati shakllanishida u tug'ilib o'sgan ijtimoiy muhit; ta'lim-tarbiya jarayonining axloqiy yo'nalishi; shaxsning intellektual taraqqiyotiga ta'sir etuvchi tug'ma, ya'ni nasliy xususiyatlarining o'zni muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy muhitning inson axloqiy madaniyatiga ta'sirini tarixdan ko'plab misollar orqali izohlash mumkin. Temur va temuriylar davrida ma'naviyat va madaniyatning yuksalishi ijtimoiy muhit, odil siyosat, ma'naviyat va ilm-fanga, shaharsozlik, obodonlashtirish va bunyodkorlik, ayniqsa axloqqa yuksak e'tiborda namoyon bo'ladi. Buning natijasi o'laroq bir qancha buyuk mutafakkirlar, temuriy shahzodalar orasidan ham shoiru-faylasuflar yetishib chiqqanini e'tirof etish lozim.

XULOSA

Globalashuv jarayonida umuminsoniy axloqiy qadriyatlar shaxs madaniyatiga samarali ta'sir ko'rsatib, uning insoniy fazilatlari, axloqiy qadriyat va me'yorlari shakllanishida muhim omil sanaladi. Ayni paytda shaxs faoliyatining barcha sohalarida ijodiy faollikni yuzaga chiqarishda real ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarning mazmunan boyib borishi taqozo qilinadi. Ob'ektiv va sub'ektiv omillar uyg'unligi axloqiy madaniyatni mazmunan va shaklan rang-baranglashtiradi, ijtimoiy ahamiyatini ko'taradi. Buning natijasida insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasida ezgulik, go'zallik fazilatlari chuqur o'rin oladi, kasb-hunarida ijodkorlik tuyg'usi ortadi, ruhiyatida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi, milliy va umuminsoniy axloqiy meros, qadriyatlarni qadrlash hissi ortadi, o'z xalqi va mamlakati taraqqiyoti uchun estetik, ma'naviy qadriyatlar yaratish, ularni meros qilib qoldirish mas'uliyati kuchayadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Анисимов С. Духовные ценности: производство и потребление. - Москва: Мысль, 1988.
2. Белов Г. История философия науки. -Москва: Издательский дом МГУ, 2012. -432 с
3. Вебер М. Наука как призвание и профессия // М. Вебер. Избранные произведения. - М.: Прогресс, 1990.
4. Жабборов И. Юсак маданият ва ноёб маънавият маскани. -Тошкент: O'zbekiston, 2012.

5. Кант И. Сочинения в 6 т. Т. 5. М., Мысль, 1966. С.314.
6. Кармин А.С. Основы культурологии. Морфология культуры. -СП б., 1997. –С. 46-47.
7. Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современном мире. Под.ред. П. Бергера, С.Хантингтона. –М.: Аспект-Пресс, 2004. –С. 123.
8. Хусанов Б., Фуломов В. Муомала маданияти. -Тошкент: Иқтисод-молия. 2009.–Б. 57